

## **PEDAGOG KASBIY KOMPETENTLIGINING TARKIBI**

**Sayitova Umida Hikmatillo qizi**

Alfraganus universiteti, “Pedagogika va psixologiya” kafedrası  
dotsent v.b., psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14910076>

Pedagoglarning kasbiy kompetentligi asoslaridan biri o‘z tarkibida bilimlar, mahorat va shaxs sifatini belgilovchi unsur hisoblanib, ular doimo pedagogni harakatga keltirib turuvchi o‘z ustida ishlash, bilimlarini oshirib borish, har bir pedagogik vaziyatga ijodiy yondoshish hamda moslashish kabi imkoniyatlaridir. Pedagoglarning kasbiy kompetentligi tuzilishini tahlil qilar ekanmiz, ko‘pchilik tadqiqotchilar kasbiy kompetentlikni ta’limning funksional tuzilishi sifatida, uning tarkibiga o‘qituvchining bilimi va mahorati uzviyligi hamda kasb-kor bo‘yicha malakasi aniq maqsadni ko‘zlab amalga oshiradigan faoliyati, deb baho beradilar. Ammo bilim va mahorat kabi tushunchalarga nisbatan kompetensiya o‘ta moslashuvchan, bulg‘usi yangilanishlar asosi, yangi dolzarb axborotlarni qayta ishlashi va amaliy faoliyatida qo‘llashi bilan farq qiladi. Shunday bo‘lsa ham, kompetentlikning o‘zagi pedagogning shaxsiy sifatлари, uning yo‘naltirilganligi, maqsadi, umuminsoniylik qadriyatları, sharoitga moslasha olish qobiliyati, o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda rang baranglik, turli-tuman o‘zgarishlar kiritishga o‘ta mos va munosiblikni ta’minlashi ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Tayanch kompetensiyalarning uch guruhini ajratib olish uchun nazariy asos sifatida psixologiyada shakllantirilgan qoidalar xizmat qiladi, bu qoidalarga inson muloqot, bilim olish va mehnat sub’ekti ekanligi, insonning kompetentligi akmeologik rivojlanish vektoriga ega ekanligi (N.V.Kuzmina); kasbiy mahorat kompetentlikni o‘z ichiga olishi (A.K.Markova) kabilar kiradi. Yuqoridagi fikrlardan kompetentlikning uch asosiy guruhi ajratib ko‘rsatiladi:[1]

1. O‘z-o‘ziga, shaxs sifatida, hayot faoliyati sub’ekti sifatida munosabatda bo‘ladigan kompetensiyalar.
2. Insonning boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlariga taalluqli kompetensiyalar.
3. Insonning barcha turdagi va shakldagi faoliyatiga taalluqli kompetensiyalar.

Pedagoglarning kasbiy kompetentligining shakllanishi uning kasbiy-pedagogik vaziyatlarda aqliy, predmetli-amaliy va motivatsion omillar bilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlarining ifodalanishi bilan yorqin namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga ushbu omillar ko‘plab umumiy jihatlarga ham ega. Bu sohadagi maxsus izlanishlar natijalari ko‘rsatganidek kasbiy faoliyatga ta’lim oluvchilarning kasbiy kompetentligi ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarida ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish kerakligini taqazo etadi, chunki bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish, psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash va o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlarini asoslash muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilarni kasbiy–pedagogik tayyorgarlik sifatini tubdan oshirish uning mazmuni bilan bevosita bog'liqdir, chunki o'qituvchilarni kasbiy shakllantirish pedagogik va metodik bilimlarni fan, ta'lim, texnika, texnologiya va ishlab chiqarish iqtisodiyoti sohalaridagi o'zgarishlarga asoslangan integratsiyasi ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu jarayon esa bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash mazmunini asoslash va kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasini yaratishda muayyan o'zgarishlarni amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Kompetensiya o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi.[2] Kompetensiya egasi bo'lgan mutaxassis muammolarni yechishda o'zi o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va yo'llardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni tanlab olib qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi. Kasbiy ta'lim sifatini aynan bo'lajak mutaxassisning kompetentligini shakllantirish hamda uning kasbiy pedagogik ijodkorligini rivojlantirish bilan ta'minlash mumkin, buni ta'lim jarayonida amalga oshirish texnologiyalarini ishlab chiqish kasbiy ta'limni modernizatsiya qilishning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Demak, kompetentlik talaba tomonidan alohida bilim va malakalarni egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo'yiluvchi talablar nuqtai nazaridan kompetentlik talabalarning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat usullari to'plamini maqsadga muvofiq qo'llash qobiliyatini anglatadi.

## REFERENCES

1. Гришина И.В. Профессиональная компетентность директора школы. Автореф.: дис. ... докт.пед.наук. – М.: 2004. – 40 с.
2. Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессионального подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс ... док.пед.наук.-Т.:1995.-43с.
3. Зеер Э.Ф. Модернизация профессионального образования: компетентностный подход // Образование и наука. Известия. Урал. Отделение РАО. 2004. – № 3. – С. 42-53.